# ACADEMIC SPECTRUM

2026-yil 4-son

Ilmiy-metodik jurnal
Научно методический журнал
Scientific and Methodical Journal

ISSN
3093-9089



Buxoro - 2026

# ACADEMIC SPECTRUM

Ilmiy-metodik jurnal
Научно методический журнал
Scientific and Methodical Journal

***№ 4-Son 2026-yil***

**Jurnal O'zbekiston Respublikasi Buxoro viloyat Axborot va Ommaviy komunikatsiyalar boshqarmasi tomonidan 2025-yil 26-dekabrdagi №1273056 sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan**

**BOSH MUHARRIR**:

**Axmadov Nazirjon Rahmat o'g'li**

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**

**TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

**Кулешов Валерий Владимирович** - pedagogika fanlari doktori, professor Rossiya Fanlar akademiyasining akademigi (Ukraina).

**Andriyenko Yelena Vasilyevna** - pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta'limi instituti, Novosibirsk, Rossiya).

**Romm Tatyana Aleksandrovna** - pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta'lim instituti, Novosibirsk, Rossiya).

**Tadjixodjayev Zokirxo'ja Abdusattorvich** - Texnika fanlari doktori, professor

**Olimov Shirinboy Sharofovich** - pedagogika fanlari doktori, professor (Buxoro davlat universiteti "Pedagogika" kafedrasi mudiri).

**Zaripov Lochin Rustamovich** - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot markazi, O'quv-uslubiy faoliyatni takomillashtirish boshqarma boshlig'i).

**Xamidov Akmal Amrulloyevich** – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) (Buxoro viloyati Pedagogik mahorat markazi direktori)

**Nazarov Akmal Mardonovich** - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor (Buxoro davlat universiteti Yoshlar masalalari va ma`naviy-ma`rifiy ishlar bo`yicha birinchi prorektor).

**Safarov Dilmurod Xalimovich** - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor (Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi Akademik faoliyat bo'yicha direktor o'rinbosari)

**Rustamov Shavkat Shuhrat o'g'li** - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent (Buxoro davlat universiteti "Psixologiya" kafedrasi mudiri).

**Ganjiyev Feruz Furqatovich** - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent (Buxoro davlat universiteti "Psixologiya" kafedrasi professori).

**Kosimov Ubaydulla Axrorovich** - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (Buxoro viloyati Pedagogik mahorat markazi Pedagogika va psixologiya, ta'lim texnologiyalari kafedrasi mudiri)

**Ismatova Dilafruz Tuymuratovna** - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti "Psixologiya" kafedrasi dotsenti).

**Muxlisov Sodiqjon Saidjonovich** - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti "Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar kafedrasi dotsenti).

**Tilavov Muxtor Hasan o‘g‘li** - psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasi dotsenti).

**Mas’ul kotib:**

**Dehqonboyev Shohjahon Oybek o‘g‘li** – Buxoro davlat universiteti Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

**EDITOR-IN-CHIEF:**

**Akhmadov Nazirjon Rahmat o'g'li** — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor.

**MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:**

**Valeriy Vladimirovich Kuleshov** — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor, Academician of the Russian Academy of Sciences (Ukraine).

**Elena Vasilyevna Andrienko** — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Novosibirsk State Pedagogical University, Institute of Physics, Mathematics, Information and Technological Education, Novosibirsk, Russia).

**Tatyana Aleksandrovna Romm** — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Novosibirsk State Pedagogical University, Institute of History, Humanities and Social Education, Novosibirsk, Russia).

**Tadjixodjayev Zokirkhoja Abdusattorovich —** Doctor of Technical Sciences, Professor.

**Shirinboy Sharofovich Olimov** — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Bukhara State University, Head of the "Pedagogy" Department).

**Lochin Rustamovich Zaripov** — Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor (Research Center for the Development of Higher Education under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan, Head of the Department for Improvement of Educational and Methodological Activities).

**Khamidov Akmal Amrulloyevich** — Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Director of the Bukhara Regional Center for Pedagogical Excellence.

**Akmal Mardonovich Nazarov** — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor (Bukhara State University, First Vice-Rector for Youth Affairs and Spiritual-Educational Work).

**Dilmurod Xalimovich Safarov** — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor (Navoi Regional Center for Pedagogical Excellence, Deputy Director for Academic Affairs).

**Shavkat Shuhrat o'g'li Rustamov** — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor (Bukhara State University, Head of the "Psychology" Department).

**Feruz Furqatovich Ganjiyev** — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor (Bukhara State University, Professor of the "Psychology" Department).

**Kosimov Ubaydulla Axrorovich —** Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor, Head of the Department of Pedagogy and Psychology, Educational Technologies at the Bukhara Regional Center for Pedagogical Excellence.

**Dilafruz Tuymuratovna Ismatova** — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor (Bukhara State University, "Psychology" Department).

**Sodiqjon Saidjonovich Mukhlisov** — Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor (Bukhara State University, “Information Systems and Digital Technologies” Department).

**Muxtor Hasan o‘g‘li Tilavov** — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor (Bukhara State University, “Psychology” Department).

**EXECUTIVE SECRETARY:**

**Dehqonboyev Shohjahon Oybek o‘g‘li** — Lecturer, Department of Psychology, Bukhara State University.

**ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:**

**Ахмадов Назирджон Рахмат угли — доктор философии по психологии (PhD), доцент.**

**ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОГО СОВЕТА:**

**Кулешов Валерий Владимирович** — доктор педагогических наук, профессор, академик Российской академии наук (Украина).

**Андриенко Елена Васильевна** — доктор педагогических наук, профессор (Новосибирский государственный педагогический университет, Институт физики, математики, информационных и технологических наук, г. Новосибирск, Россия).

**Ромм Татьяна Александровна** — доктор педагогических наук, профессор (Новосибирский государственный педагогический университет, Институт истории, гуманитарных и социальных наук, г. Новосибирск, Россия).

**Таджиходжаев Зокирходжа Абдусатторович** — доктор технических наук, профессор.

**Олимов Ширинбой Шарофович** — доктор педагогических наук, профессор (Бухарский государственный университет, заведующий кафедрой «Педагогика»).

**Зарипов Лочин Рустамович** — доктор педагогических наук (DSc), профессор (Научно-исследовательский центр развития высшего образования при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан, начальник управления совершенствования учебно-методической деятельности).

**Хамидов Акмал Амруллоевич** — доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, директор Центра педагогического мастерства Бухарской области.

**Назаров Акмал Мардонович** — доктор психологических наук (DSc), профессор (Бухарский государственный университет, первый проректор по делам молодежи и духовно-просветительской работе).

**Сафаров Дилмурод Халимович** — доктор психологических наук (DSc), профессор (Навоийский областной центр педагогического мастерства, заместитель директора по академической деятельности).

**Рустамов Шавкат Шуҳрат угли** — доктор психологических наук (DSc), доцент (Бухарский государственный университет, заведующий кафедрой «Психология»).

**Ганжиев Феруз Фуркатович** — доктор психологических наук (DSc), доцент (Бухарский государственный университет, профессор кафедры «Психология»).

**Косимов Убайдулла Ахророрович —** доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент, заведующий кафедрой педагогики и психологии, образовательных технологий Центра педагогического мастерства Бухарской области.

**Исматова Дилафруз Туймуратовна** — доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент (Бухарский государственный университет, кафедра «Психология»).

**Мухлисов Содикжон Саиджонович** — доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент (Бухарский государственный университет, кафедра «Информационные системы и цифровые технологии»).

**Тилавов Мухтор Хасан угли** — доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент (Бухарский государственный университет, кафедра «Психология»).

**ОТВЕТСТВЕННЫЙ СЕКРЕТАРЬ:**

**Дехконбоев Шохжахон Ойбек угли** — преподаватель кафедры «Психология» Бухарского государственного университета.

# MUNDARIJA:


| T/R | Mualliflar | Maqola sarlavhasi | Bet |
|---|---|---|---|
| 1 | *G'AYBULLAYEV ALISHER ASADOVICH* | MAKTAB UQUVCHILARIDA BULLING XULQ ATVOR SHAKLLANISHINING IJTIMOIY PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI | 11 |
| 2 | *YOQUBJONOVA SEVARA BAHODIR QIZI* | PRESERVING THE AUTHOR'S INDIVIDUAL STYLE IN UZBEK TRANSLATION (BASED ON LEE KUAN YEW'S FROM THIRD WORLD TO FIRST) | 17 |
| 3 | *IBODULLOYEV NURALI SHERALIYEVICH* | PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING TA’LIM JARAYONIDA SAMARDORLIGI VA METODOLOGIK ASOSLARI | 28 |
| 4 | *AXMEDOVA ZARRINA JAMILOVNA, NARZULLOYEVA JASMINA JO'RABEK QIZI* | IJTIMOIY TARMOQLARNING O‘SPIRINLAR PSIXIKASIGA TA’SIRI VA UNING PSIXOLOGIK JIHATLARI | 31 |
| 5 | *QAZOQOV MUXRIDDIN HOSHIM O'G'LI* | ФОРМИРОВАНИЕ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У СОТРУДНИКОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ | 36 |
| 6 | *SAIDOVA RAYHONA AMON QIZI* | BO'LAJAK PEDAGOGLARDA KASBIY FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI | 39 |
| 7 | *NISHONOVA ZUXRA VOXIDJON QIZI* | THE DEVELOPMENT OF THE PHONICS APPROACH AND ITS ROLE IN MODERN EDUCATIONAL PARADIGMS | 42 |
| 8 | *SADULLAYEVA SEVARA G'AYRADJONOVNA* | TALABALARDA UYQUSIZLIK VA UNING SALOMATLIKKA TA’SIRI | 46 |
| 9 | *SAFAROVA ZULFIZAR BOBONAZAR QIZI* | BAHOLASH AMALIYOTIDA UCHRAYDIGAN MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI | 50 |
| 10 | *MAMATOV ALIMARDON SOTVOLDI O'G'LI, SHOMUROTOV ZOXID ZOKIROVICH* | PROFESSIONAL DEFORMATION AND ITS CAUSES | 54 |
| 11 | *UBAYDULLA AXROROVICH KOSIMOV* | KICHIK MAKTAB YOSHIDA AXBOROT QABUL QILISH MODALLIGINING AHAMIYATI | 59 |

| T/R | Mualliflar | Maqola sarlavhasi | Bet |
|---|---|---|---|
| 12 | *XAMIDOV AKMAL AMRULLOYEVICH* | KASB TANLASHDA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARNING O'RNI | 64 |
| 13 | *JAXONOV JAVLONBEK JAMIL O'G'LI* | O'SMIRLARDA JINOYAT MOTIVLARI SHAKLLANISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI | 68 |
| 14 | *OSTONOVA LOBAR RASHID QIZI* | THE ROLE OF PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL APPROACHES IN THE EFFECTIVE ORGANIZATION OF STUDENTS' LEISURE TIME | 71 |
| 15 | *SAFAROVA ZULFIZAR BOBONAZAR QIZI* | MUSTAQIL FAOLIYATNI BAHOLASH TEXNOLOGIYALARI: MUAMMO VA YECHIMLAR | 76 |
| 16 | *HAMROYEV JAMSHID O'G'LI TEMURBEK* | MIGRATSIYA BILAN BOG'LIQ IJTIMOIY SHAROITLARDA O'SMIRLARNING PSIXOLOGIK MOSLASHUV STRATEGIYALARI. | 79 |
| 17 | *OBIDOVA ZILOLA FOZILOVNA* | YOSHLAR ORASIDA YUKSAK HUQUQIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI | 83 |
| 18 | *QOSIMOVA SARVINOZ BAXTIYOROVNA* | YOSHLAR ONGIDA MANIPULYATSION TA'SIRLARGA QARSHI IMMUNITETNI HOSIL QILISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI. | 86 |
| 19 | *SHODIYEVA UMEDA SHUHRAT QIZI* | BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOMMUNIKATIV QOBILIYATNI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI | 92 |
| 20 | *UMARALIYEVA MUNOJATXON MASHRABOVNA, IBRAGIMOVA MUHLISA ISMOILJON QIZI* | THE DIFFICULTY OF TRANSLATING HUMOR AND JOKES FROM ENGLISH INTO UZBEK | 97 |

**Hamroyev Temurbek Jamshid o'g'li**
*Mustaqil izlanuvchi*

## MIGRATSIYA BILAN BOG'LIQ IJTIMOIY SHAROITLARDA O'SMIRLARNING PSIXOLOGIK MOSLASHUV STRATEGIYALARI.

***Annotatsiya.*** *Mazkur ilmiy maqolada migratsiya jarayonlari ta'sirida shakllanayotgan ijtimoiy muhitda o'sib kelayotgan o'smirlarning psixologik moslashuv strategiyalari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqotda migratsion oilalarda voyaga yetayotgan o'smirlarning emotsional holati, ijtimoiy moslashuvi, kommunikativ xulq-atvori hamda stressga bardoshlilik darajasiga ta'sir etuvchi omillar aniqlanadi. Shuningdek, o'smirlarning yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashishida qo'llaydigan asosiy strategiyalar — muammoni hal qilishga yo'naltirilgan faoliyat, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga tayanish, emotsional regulyatsiya va adaptiv xulq shakllari ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqot natijalari migratsiya sharoitida o'sayotgan o'smirlarning psixologik barqarorligini ta'minlash, ularning ijtimoiylashuv jarayonini optimallashtirish hamda psixoprofilaktik va psixokorreksion dasturlarni ishlab chiqishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.*

***Kalit so'zlar:*** *migratsiya, o'smir, psixologik moslashuv, adaptatsiya strategiyalari, ijtimoiy muhit, emotsional barqarorlik, stressga chidamlilik, ijtimoiylashuv.*

**Хамроев Темурбек Жамшид угли**
*Независимый исследователь*

## ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ СТРАТЕГИИ АДАПТАЦИИ ПОДРОСТКОВ В СОЦИАЛЬНЫХ УСЛОВИЯХ, СВЯЗАННЫХ С МИГРАЦИЕЙ

***Аннотация.*** *В данной научной статье системно анализируются стратегии психологической адаптации подростков, формирующихся в условиях социальной среды, связанной с миграционными процессами. В исследовании выявляются факторы, влияющие на эмоциональное состояние, социальную адаптацию, коммуникативное поведение и стрессоустойчивость подростков, воспитывающихся в миграционных семьях. Особое внимание уделяется основным стратегиям адаптации, таким как проблемно-ориентированное поведение, опора на социальную поддержку, эмоциональная регуляция и формирование адаптивных моделей поведения. Полученные результаты имеют важное научно-практическое значение для обеспечения психологической устойчивости подростков в условиях миграции, оптимизации их социализации, а также разработки психопрофилактических и психокоррекционных программ.*

***Ключевые слова:*** *миграция, подростки, психологическая адаптация, стратегии адаптации, социальная среда, эмоциональная устойчивость, стрессоустойчивость, социализация.*

**Hamroyev Temurbek Jamshid ogli**
*Independent researcher*

## PSYCHOLOGICAL ADAPTATION STRATEGIES OF ADOLESCENTS IN MIGRATION-RELATED SOCIAL CONDITIONS

***Annotation.*** *This scientific article provides a systematic analysis of psychological adaptation strategies among adolescents developing within social environments shaped by migration processes. The study identifies key factors influencing emotional states, social adaptation, communicative behavior, and stress resilience in adolescents raised in migrant families. Special attention is given to major adaptation strategies, including problem-focused coping, reliance on social support, emotional regulation, and the development of adaptive behavioral patterns. The findings hold significant scientific and practical value for enhancing psychological stability among adolescents in migration contexts, optimizing their socialization processes, and designing effective psychoprophylactic and psychocorrective programs.*

***Keywords:*** *migration, adolescents, psychological adaptation, coping strategies, social environment, emotional stability, stress resilience, socialization.*

**Mavzu dolzarbligi.** Hozirgi kunda migratsiya jarayonlari global miqyosda keskin faollashib, o'smirlarning psixologik rivojlanishi va moslashuv strategiyalariga bevosita ta'sir ko'rsatayotgan eng muhim ijtimoiy omillardan biriga aylangan. So'nggi xalqaro statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda xalqaro migrantlar soni 281 million nafarga yetgan bo'lib, ularning qariyb 36 millionini bolalar tashkil etadi, ya'ni har 66 boladan biri o'z tug'ilgan mamlakatidan tashqarida yashamoqda . Bundan tashqari, 2024-yil oxiriga kelib dunyo bo'yicha 48,8 million bola turli nizolar va zo'ravonliklar oqibatida majburiy ko'chishga duch kelgan, bu esa o'smirlar orasida psixologik stress, xavotir va identifikatsiya muammolarining keskin ortishiga olib kelmoqda . Ushbu ko'rsatkichlar migratsiya nafaqat iqtisodiy, balki chuqur psixologik va ijtimoiy jarayon ekanini ko'rsatadi, ayniqsa o'smirlar uchun yangi muhitga moslashish, ijtimoiy rollarni qayta shakllantirish va o'zini anglash jarayonlari murakkablashib borayotganini tasdiqlaydi.

Shuningdek, global tadqiqotlar migratsiya oqimlarining sifat jihatdan ham o'zgarib borayotganini ko'rsatmoqda, ya'ni zamonaviy migratsiya nafaqat geografik ko'chish, balki ijtimoiy-madaniy integratsiya, psixologik moslashuv va identitet transformatsiyasi bilan bog'liq kompleks jarayonga aylanmoqda. Masalan, oxirgi yillarda migratsiya oqimlarida keskin o'zgarishlar kuzatilib, ayrim hududlarda urush va iqtisodiy inqirozlar tufayli migratsiya hajmi keskin oshgan, hatto ayrim mamlakatlardan chiqish ko'rsatkichlari bir necha baravar ortgan . Shu bilan birga, migrantlarning asosiy qismi yuqori daromadli mamlakatlarga yo'nalayotgani, bu esa o'smirlarning yangi ijtimoiy-madaniy muhitga moslashishida til, qadriyatlar, ijtimoiy norma va kommunikativ moslashuv muammolarini yanada kuchaytirayotganini ko'rsatadi . Demak, bugungi global sharoitda o'smirlarning psixologik moslashuv strategiyalarini o'rganish nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb bo'lib, bu jarayonlarning chuqur tahlili ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning muhim omili sifatida qaralmoqda.

O'zbekiston sharoitida ham migratsiya jarayonlari ijtimoiy hayotning muhim tarkibiy qismi sifatida shakllanib, ayniqsa mehnat migratsiyasi oila institutiga, tarbiya tizimiga va o'smirlarning psixologik rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatda migratsiya oqimlari yillar davomida dinamik o'zgarib, ayrim davrlarda migrantlar soni kamaygan bo'lsa-da, umumiy jarayon sifatida tashqi mehnat migratsiyasi barqaror ijtimoiy hodisa sifatida saqlanib qolmoqda . Shu bilan birga, ichki ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar natijasida 2025-yil boshiga kelib o'zini o'zi band qilgan shaxslar soni 4,4 million nafardan oshgani qayd etilgan bo'lib, bu esa migratsiya oqimlarining ichki mehnat bozori bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi . Mazkur jarayonlar fonida ko'plab o'smirlar ota-onasining vaqtinchalik migratsiyasi sababli "transmilliy oila" sharoitida voyaga yetmoqda, bu esa ularning emotsional holati, ijtimoiylashuvi va psixologik barqarorligiga sezilarli ta'sir qilmoqda.

Bundan tashqari, O'zbekistonda migratsiya bilan bog'liq ijtimoiy siyosatning faollashuvi, migrantlar va ularning oilalarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan davlat dasturlarining kengayishi kuzatilmoqda. Xususan, migratsiya jarayonlarini tartibga solish, migrantlarning huquqiy himoyasini kuchaytirish, ularning oila a'zolari bilan ijtimoiy aloqalarini qo'llab-quvvatlash va qaytgan migrantlarning reintegratsiyasini ta'minlash bo'yicha kompleks choralar amalga oshirilmoqda . Biroq, mavjud ijtimoiy mexanizmlarga qaramay, migratsiya sharoitida o'sayotgan o'smirlarning psixologik moslashuvi, emotsional barqarorligi, ijtimoiy xulq-atvori va shaxsiy identiteti bilan bog'liq muammolar hali ham dolzarb ilmiy muammo sifatida saqlanib qolmoqda. Shu sababli, o'smirlarning migratsiya sharoitida moslashuv strategiyalarini chuqur o'rganish va ular asosida psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish bugungi kunda O'zbekiston ilm-fani va amaliyoti oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Avvalo, mahalliy olimlar ishlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda migratsiya jarayonlari asosan ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va institutsional nuqtayi nazardan keng o'rganilgan bo'lib, o'smirlarning psixologik moslashuvi masalasi bilvosita yoritilgan. Jumladan, S. Alimov o'z tadqiqotlarida migratsiya etikasi, ijtimoiy himoya va migratsiya siyosati

masalalarini chuqur tahlil qilib, migratsiyaning oila institutiga ta'sirini asoslab bergan. F. Parmonov esa migratsiya jarayonlarining jamiyatdagi ijtimoiy transformatsiyalar bilan bog'liqligini o'rganib, mehnat migratsiyasi natijasida yuzaga keladigan oilaviy struktura o'zgarishlarini ko'rsatadi. Shuningdek, I. Daminov tomonidan olib borilgan tadqiqotlar migratsiya va transmilliy mobillikning siyosiy va ijtimoiy jihatlarini yoritib, migratsiya oqimlarining global tizim bilan bog'liqligini asoslaydi. D.A. Majidova va D.F. Xusanova ishlarida migratsiya jarayonlarining oilaviy munosabatlar va yosh avlod tarbiyasiga ta'siri qayd etilgan bo'lsa, A.A. Bazarov iqtisodiy omillarni markaziy determinant sifatida ko'rsatadi. Ushbu olimlar bevosita o'smirlarning psixologik moslashuv strategiyalarini alohida predmet sifatida o'rganmagan bo'lsa-da, ular tomonidan yoritilgan migratsion ijtimoiy muhit aynan o'smir psixikasida yuz beradigan moslashuv mexanizmlarini tushuntirish uchun zarur nazariy asosni yaratadi. Shu jihatdan, mahalliy adabiyotlar ushbu mavzu uchun kontekstual va ijtimoiy-fon vazifasini bajaradi hamda o'smirlarning moslashuvi sodir bo'layotgan real ijtimoiy sharoitlarni ochib beradi.

Xorijiy olimlar ishlarida esa migratsiya sharoitida o'smirlarning psixologik moslashuv strategiyalari eng keng va chuqur o'rganilgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu borada Jon Berry, Jin Finney, Devid Sam va Paul Vedder tomonidan olib borilgan tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular immigrant o'smirlarning akkulturatsiya strategiyalari va moslashuv natijalari o'rtasidagi bog'liqlikni empirik jihatdan asoslab bergan. Ushbu olimlar integratsiya strategiyasi eng samarali moslashuv modeli ekanini, marginalizatsiya esa eng salbiy natijalarga olib kelishini aniqlagan. Shuningdek, Karola Suarez-Orozko immigrant o'smirlarning maktab muhitida moslashuvi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va identitet shakllanishi masalalarini chuqur o'rgangan. Uning tadqiqotlari o'smirlarning moslashuvi ko'p jihatdan ijtimoiy institutlar bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, Frosso Motti-Stefanidi migrant o'smirlarning moslashuvini rezilyentlik va rivojlanish psixologiyasi nuqtayi nazaridan tahlil qilib, xavf va himoya omillarining o'zaro ta'sirini ko'rsatgan. Mina Fazel esa qochoq va migrant bolalar ruhiy salomatligi, maktab asosidagi psixologik yordam tizimlari va moslashuv mexanizmlarini o'rganib, amaliy jihatdan muhim xulosalar chiqargan. Fanni Sharf tomonidan olib borilgan tizimli tadqiqotlar esa qochoq o'smirlarning psixologik moslashuvi ijtimoiy-ekologik model asosida shakllanishini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Ushbu olimlar ishlari mazkur mavzuning bevosita ilmiy asosini tashkil etadi, chunki ular aynan migratsiya sharoitida o'smirlarning psixologik moslashuv strategiyalarini empirik ma'lumotlar asosida o'rgangan.

Eng so'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar esa ushbu yo'nalishni yanada chuqurlashtirib, moslashuv strategiyalarining aniq psixologik mexanizmlarini ochib bermoqda. Masalan, Ranim Abdulhamed tegishlilik hissi va diskriminatsiya o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganib, tegishlilik hissi moslashuvning muhim himoya omili ekanini ko'rsatgan. Riya Jain esa immigrant o'smirlarning ijtimoiy moslashuvida oilaviy va madaniy identitetning rolini aniqlagan. Usama El-Avad tadqiqotlarida ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va postmigratsion stress o'rtasidagi murakkab bog'liqliklar ochib berilgan bo'lsa, D.Lerias tomonidan olib borilgan ko'p mamlakatli tadqiqotlarda diskriminatsiya, oilaviy muhit va rezilyentlik o'smirlar moslashuvining asosiy determinantlari sifatida aniqlangan. Ushbu zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda migratsiya sharoitida o'smirlarning psixologik moslashuv strategiyalari ko'p omilli, tizimli va dinamik jarayon sifatida talqin qilinmoqda hamda bu yo'nalish hali ham faol rivojlanayotgan ilmiy sohaga aylangan.

**Xulosa.** Umuman olganda, migratsiya bilan bog'liq ijtimoiy sharoitlarda o'smirlarning psixologik moslashuv strategiyalarini o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, bu jarayon oddiy ijtimoiy moslashuv emas, balki murakkab, ko'p omilli va dinamik psixologik tizim sifatida namoyon bo'ladi, unda shaxsiy, oilaviy va ijtimoiy omillar o'zaro uzviy bog'langan holda faoliyat yuritadi. Tadqiqotlar asosida aniqlanishicha, o'smirlarning moslashuvi ularning individual psixologik resurslari bilan bir qatorda, ular yashayotgan ijtimoiy muhit — oila, maktab, tengdoshlar guruhi va keng jamoatchilik tomonidan yaratilgan sharoitlar bilan bevosita belgilanadi. Ayniqsa, migratsiya natijasida yuzaga keladigan emotsional bo'shliq, identitet izlanishi, kommunikativ qiyinchiliklar va ijtimoiy rollarning qayta shakllanishi o'smirlarning ichki psixologik holatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlar shuni tasdiqlaydiki, o'smirlar ushbu murakkab vaziyatlarga turlicha

moslashuv strategiyalarini ishlab chiqadi, jumladan muammoni hal qilishga yo'naltirilgan faol yondashuv, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga tayanish, emotsiyalarni boshqarish va yangi ijtimoiy qadriyatlarni qabul qilish orqali moslashuvni ta'minlashga harakat qiladi.

Tahlillar shuni ham ko'rsatadiki, muvaffaqiyatli moslashuv ko'proq integrativ strategiyalar bilan bog'liq bo'lib, bunda o'smir o'z milliy-madaniy identitetini saqlagan holda yangi ijtimoiy muhit talablariga moslashadi, aksincha, ijtimoiy izolyatsiya yoki marginalizatsiya strategiyalari psixologik muammolar, stress va dezadaptatsiya xavfini oshiradi. Ayniqsa, zamonaviy tadqiqotlarda tegishlilik hissi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va oilaviy barqarorlik o'smirlar moslashuvining asosiy himoya omillari sifatida e'tirof etilmoqda. O'zbekiston sharoitida esa migratsiya jarayonlari keng ijtimoiy hodisa sifatida shakllangan bo'lsa-da, o'smirlarning psixologik moslashuv strategiyalarini bevosita o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar hali yetarli darajada rivojlanmaganligi aniqlanadi, bu esa mazkur yo'nalishda yangi empirik izlanishlar olib borish zarurligini ko'rsatadi. Shu sababli, kelgusida migratsiya sharoitida o'sayotgan o'smirlarning psixologik barqarorligini ta'minlash, ularning ijtimoiylashuv jarayonini qo'llab-quvvatlash hamda samarali psixoprofilaktik va psixokorreksion dasturlarni ishlab chiqish ilmiy-amaliy jihatdan dolzarb vazifa bo'lib qoladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Alimov, S. Mehnat migratsiyasi etikasi va ijtimoiy himoya masalalari. – Toshkent: Fan, 2020. – 156 b.

2. Parmonov, F.Ya. O'zbekistonda migratsiya jarayonlari va ularning ijtimoiy-demografik xususiyatlari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019. – 198 b.

3. Daminov, I. Migration and Mobility in Central Asia: Trends and Policies. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2021. – 210 b.

4. Majidova, D.A., Xusanova, D.F. Migratsiya jarayonlarining oila va yoshlar tarbiyasiga ta'siri. // Ijtimoiy fanlar jurnali. – Toshkent, 2022. – №3. – B. 45–52.

5. Berry, J.W., Phinney, J.S., Sam, D.L., Vedder, P. Immigrant Youth in Cultural Transition: Acculturation, Identity, and Adaptation Across National Contexts. – Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 2006. – 364 p.

6. Suárez-Orozco, C., Suárez-Orozco, M.M. Children of Immigration. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 2001. – 304 p.

7. Fazel, M., Reed, R.V., Panter-Brick, C., Stein, A. Mental Health of Displaced and Refugee Children Resettled in High-Income Countries. // The Lancet. – 2012. – Vol. 379. – P. 266–282.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Buxoro viloyat Axborot va Ommaviy komunikatsiyalar boshqarmasi tomonidan 2025-yil 26-dekabrdagi №1273056 sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

**Tahririyat manzili:** 200117, O‘zbekiston Respublikasi,
Buxoro shahri Alpomish ko‘chasi, 9-uy
**Elektron manzil:** aspec.uz
Telegram raqami: -998 (91) 245-46-66

***“ACADEMIC SPECTRUM” ilmiy-metodik jurnal.***
***Buxoro, 2026. № 4-Son.***